

**QORAQALPOG‘ISTON  
RESPUBLIKASI  
TAXIATOSH TUMANI  
HOKIMINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
TAQIYATAS RAYONI  
HAKIMININ  
QARARI**

2022 - yil 10 - yanvar

5-13-215-Q/22

Taxiatosh tumani hokimligi

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 6-yanvar kungi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda­gi «Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-62-sonli qarori haqida”gi 1-13-0-Q/21-sonli qarori to‘g‘risida**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 6-yanvar kungi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda­gi «Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-62- sonli qarori haqida”gi 1-13-0-Q/21-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 6-yanvar kungi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda­gi «Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-62- sonli qarori haqida”gi 1-13-0-Q/21-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi markaziy apparati tuzilmasiga iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri o‘rinbosari lavozimini qisqartirish hisobiga, iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining o‘rinbosari - Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi direktori lavozimi kiritilganligi;

b) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi:

respublikada tadbirkorlikni va mahallalarni iqtisodiy rivojlantirish borasida

yagona davlat siyosatini yuritish;

mahallabay ishlashning vertikal tizimi asosida aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va o'qitish hamda o'zini o'zi band qilish faoliyatiga yo'naltirish;

vakolatli davlat organlari va tashkilotlari hamda mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilarining (keyingi o'rinlarda — hokim yordamchilari) faoliyatini muvofiqlashtirish;

iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda tadbirkorlikni muhim drayverga aylantirishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

mahalliy hokimliklar bilan birga hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish;

aholi va tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini qabul qilish va tizimli tahlil qilish asosida hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan byurokratik to'siqlar va g'ovlarni bartaraf etish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash loyihalarini amalga oshirish yuzasidan o'zaro hamkorlikni ta'minlash.

v) Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi bevosita Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tarkibiga o'tkazilganligi;

g) Quyidagilar:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining markaziy apparati tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarining tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlarining namunaviy tuzilmasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

d) Agentlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda — Agentlikning hududiy boshqarmalari) boshliqlari Agentlik direktori tomonidan tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent hokimlari taqdimnomasi asosida lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etilishi;

Tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlarining (keyingi o‘rinlarda — markazlar) boshliqlari Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari tomonidan Agentlik bilan kelishgan holda tuman (shahar) hokimlari taqdimnomasi asosida lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etilishi **belgilanganligi;**

Agentlik Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ikki hafta muddatda Agentlikning hududiy boshqarmalari hamda markazlarni malakali va salohiyatli kadrlar bilan to‘ldirish topshirilganligi;

e) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Agentlik, uning hududiy boshqarmalari va markazlarga kadrlar qabul qilishning soddalashtirilgan tartibda ochiq mustaqil tanlov asosida amalga oshirilishi va lavozimga tayinlanishi bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish topshirilganligi;

j) Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan hamkorligida:

bir oy muddatda hokim yordamchilari ishini to‘g‘ri tashkil etishga uslubiy ko‘mak ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yishi;

joylarda amalga oshirilayotgan ishlar holatini chuqur tahlil qilgan holda, hokim yordamchilari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha har chorakda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritib borishi;

z) Agentlik tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) tashkil etilganligi;

i) 2022-yil 1-yanvardan boshlab Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan aholini tadbirkorlikka jalb qilish va o‘qitish uchun subsidiyalar berish yo‘nalishidagi vazifa va funksiyalari Jamg‘armaga o‘tkazilishi;

Agentlik tarkibida 3 ta shtat birligidan iborat Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tashkil etilishi hamda mazkur shtat birliklari Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hisobidan shakllantirilishi;

2022-yildan boshlab Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga aholini tadbirkorlikka jalb qilish va o'qitish uchun Davlat budjetidan ajratiladigan transfertlar Jamg'armaga yo'naltirilishi, 2023-yildan boshlab — Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda ushbu mablag'lar Jamg'arma uchun ajratilishi ko'zda tutilishi belgilab qo'yilganligi;

y) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Agentlik, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda hokim yordamchilari faoliyatini samarali tashkil etish va baholab borish imkonini beruvchi hamda tegishli vazirlik va idoralar ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan «Onlayn mahalla» elektron platformasi ishga tushirilishini ta'minlash topshirilganligi;

k) Quyidagilar bir oy muddatda:

Toshkent shahar hokimligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda Agentlikni barcha zarur qulayliklarga ega bo'lgan binoga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda Agentlikning hududiy boshqarmalari hamda markazlarni zarur mebel va anjomlar, axborot-kommunikatsiya (kompyuter, printer, nusxa ko'chirish apparati, internet) va aloqa vositalari bilan jihozlangan binolarga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishini ta'minlash topshirilganligi;

l) Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi mahallalarda hokim yordamchilari faoliyati va ular erishayotgan natijalarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qilish topshirilganligi;

m) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga bir oy muddatda:

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi to'g'risidagi nizom loyihalarini;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining mazkur qarori bilan:

A) Quyidagilar:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi

hududiy boshqarmasining tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlarining namunaviy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

B) Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi direktori tomonidan tegishlilik bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi taqdimnomasi asosida lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi;

tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlarining boshliqlari Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi bilan kelishgan holda tuman (shahar) hokimlari taqdimnomasi asosida lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi;

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi Nukus shahri va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda ikki hafta muddatda tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlarini malakali va salohiyatli kadrlar bilan to‘ldirish belgilab qo‘yilganligi;

V) Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasiga, Nukus shahri va tumanlar hokimlari bilan birgalikda bir oy muddatda Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi hamda tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlarini zarur mebel va anjomlar, axborot-kommunikatsiya (kompyuter, printer, nusxa ko‘chirish apparati, internet) va aloqa vositalari bilan jihozlangan binolarga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishini ta‘minlash topshirilganligi;

G) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga, bir oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risidagi takliflarni Vazirlar Kengashiga kiritish topshirilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

#### 4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosariga:

bir oy muddatda manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risidagi

takliflarni kiritish topshirilsin.

5. Taxiatoş tumani Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazining namunaviy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Hokim v.v.b**



**A.P.Amanov**

Тахياتош туман ҳокимининг  
2022 йил 10 январдаги  
5-13-215-Q/22-сон қарорига  
1-илова

**Taxiatosh tumani Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish  
markazining  
TUZILMASI**

